

Badriddinova Dilrabo

Namangan viloyati

Kosonsoy tumani

2-maktab ona tili va adabiyot

O'qtuvchisi

Darsning maqsadi:

- a) **ilmiy maqsad** – o`quvchilarning fonetik hodisalarva uning turlari haqidagi bilimlarini kengaytirish ;
- b) **tarbiyaviy maqsad** – o`quvchilar qalbiga hamkorlik, rostgo`ylik, do`stga sadoqat yaxshilik tuyg`ularini singdirish;
- d) **rivojlantiruvchi maqsad** – o`quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini va og`zaki nutqini rivojlantirish;

Nutqiylkompetensiya (tinglabtushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;

Kommunikativ kompetensiya:

- o'r ganilgan ifoda vositalari asosida o'zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda nutqiy muhitga moslasha olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

- mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini egallash .

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

- doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'r ganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o'zining burchini bilish, unga rioya qilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy me'yorlarga rioya qilish va sog'lom turmush tarziga amal qilish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Darsturi:	<i>Yangi bilim beruvchi , nazorat qiluvchi, mustahkamlovchi;</i>
Darsmetodi:	<i>"Kim chaqqon", "O'z- o'zinibaholash", "Qutinito'ldir", "Tinglavaangla", "Bilag'ono'quvchilar", "Teskariusul".</i>
Darsjihizi:	<i>darslik, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT</i>

DARSNING BLOK CHIZMASI:

Nº	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladiganishmazmuni	Ajrat ilganvaqt
1	Tashkiliyqism	Salomlashish, davomatnianiqlash, sinfnidarsgatayyorlash, ma'naviyatdaqiqasinitashkiletish	3 daqiqa
2	O'tilganmavzunitakrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangimavzubilanbog'lash	8daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangimavzunitushuntirish	14daqiqa
4	Yangimavzunimustahkamlash	Yangimavzunimustahkamlash	15 daqiqa
5	Darsyakunivabaholash	G'olibguruhnianiqlash, rag'batlantirish. Darsningso'ngixulosasinichiqarish	3daqiqa
6	Uygavazifa	O'qituvchitomonidanuygavazifae'lonqilinadi .	2 daqiqa

DARSNING BO'RISHI

I. Tashkiliyqism.

O'quvchilardavomatianiqlanadi. Sinfningdarsgatayyorgarligitekshiriladi.

Darsdapsixologikiqlimyaratish, darsshiorivamaqsadinie'lonqilish

**1.1. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish:
“Beshikdan qabrgacha ilm izla” dars shiori.**

1.2. Ma'naviyat daqiqasini tashkil etish;

Muhim beshta tashabbus bo'yicha savol javob tashkil etish;

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:



“Guruhlarda ishlash”

O'quvchilar ikki guruh- “Chaqqonlar” va “Bilimdonlar” “Topqirlar” guruhiiga bo'linadi. O'quvhilar dars jarayonida qaydarajada ishtirok etganliklarini bilish uchun “O'z-o'zini baholash” metodidan foydalanamiz. Bunda o'quvchilarga aylana shakli, go'yo nursiz quyosh tasviri chizigan list beramiz. O'quvchilar darsdagi ishtirokiga qarab nur chizadilar. Qaysi guruh o'quvchilari ko'proq nur chiqarsa, shu guruh g'olib hisoblanadi. Bu holisona baholashdir.

I guruh

II guruh

IIIguruh

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

O`tilgan mavzu: O`tilgan mavzularni mustahkamlash darsi. Mavzularni mustahkamlash uchun “Kim chaqqon” metodidan foydalanamiz. Buning uchun guruh o`quvchilariga jadval beriladi, bu jadvalni kim birinchi to`ldirsa, shu guruh g`olib hisoblanib, o`z quyoshlarini nurga to`ldiradi.

1-jadval”Qo`sh undosh” den nomlanib, 1- guruh o`quvchilari to`ldiradilar.

mm	ss	tt	vv
hamma	hassa	katta	novvot

3- jadval “Qo`sh vaQator undosh” deb nomlanadi. Bu uchinchi guruh o`quvchilari uchun;

ss	tt	st	nd
hassa	katta	stol	qand


O`quvchilar namunadek to`ldiradilar. Qaysi guruh birinchi va to`g`ri to`ldirsa shu guruh bo`z quyoshlarini bir nur chizig`i qo`shadilar.

III Yangi mavzu bayoni.


FONETIK HODISALAR

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o`zaro ta`siri natijasida o`zgarishlarga uchrashi **fonetik hodisalar** deyiladi.(Tovush tushishi, tovush almashishi, tovush ortishi). Asosga qo`shimcha qo`shilishi natijasida so`zda tovush o`zgarishi **fuziya** ham deyiladi. Fonetik hodisalar unli tovushga ham, undosh tovushga ham xos.

**Tovusho'zgarish
holatlari**



U (bu, shu, o'sha) + ga (-da, -dan, -day, -aqa, -cha), egalik qo'shimchalari (-i, -im, -ing, -imiz, -ingiz) = unga, bunda, shunday, o'shanaqa, o'shancha, unim, bunim, buningiz.
 Achi, isi, sasi + q = achchiq, issiq, sassiq
 His, tib + iy = hissiy, tibbiy
 Jiz, taq, shart + a = jizza, taqqa, shartta
 Shar, chuv + os = sharos, chuvvos
 Var, g'ur + ak = varrakg'urrak



IV Mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida "Qutini to'ldir" metodi asosida topshiriq bajariladi. Avval asos+so'z yasovchi qo'shimcha=tovush orttirilishi keyin ko'rshish olmoshi+egalik qo'shimchasi=tovush orttirilishi so'ng ko'rsatish olmoshi+kelishik qo'shimchasi=tovush orttirilishi formulasi asosida yoziladigan so'zlar ajratilib kerakli qutilarga joylashtiriladi. Bu mashqni ham o'zaro o'yin tarzida o'tkaziladi. Mashqdagagi so'zlarni qog'oz parchalariga yozib, o'qituvchi stoliga qo'yiladi. Har ikkala guruhdan navbatma- navbat o'quvchilar chiqib maxsus qutilarga joylashadi. Tez va to'g'ri javob bergen guruh o'z quyoshlarini nurlatadilar.

Achchiq

Issiq

Varrak

G'urrak

Jizza

Tibbiy

Bunim

Uning

O'shanisi

Shunisi

Unda

Unga

Bunga

Bundan

*asos+so'z
yasovchi*

*ko'rsatish
olmoshi+egalik
qo'shimchasi*

*ko'rsatish
olmoshi+kelishik
qo'shimchasi*

Mavzuni mustahkamlash uchun darslikdagi mashqlarni bajaradilar.

78-mashq. *Qo'yilgan muammo:* Bu mashq “Bilag'on o'quvchilar” o'yini orqali sinf doskasida bajariladi. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi tovush o'zgarishlarini ikki ustunga(faqat talaffuzdagi va yozuvdagi) ajratib **YOZADILAR**.

Yechim:

<i>Yozuvda</i>	<i>Faqat talaffuzda</i>
o'rni (o'rni+i)	organizm(organizm) –
angla (ong+la)	almashish
sana (son+a)	mumkin(mumkun) –
shunday (shu+n+day)	almashish
tirikligi (tiriklik+i)	
o'rni (o'rni+i)	
yasha (yosh+a)	
ata (ot+a)	

Tez va to`g`ri javob bergen guruham o`z quyoshlarini nurlatadilar.

79-mashq. *Qo'yilgan muammo:* Bu mashqni ham doskada bajargan ma'qul. “Tingla va angla” o'yini orqali o'quvchilar tominidan jadvalga joylanadi. So'zlar o'qituvchi tominidan aytib berib turilsa, o'quvchi ikki karra o'ylashga majbur bo'ladi.

Yechim:

Tovush ortishi	Tovush tushishi	Tovush almashishi
Parvoym (parvo+y+im)	Seniki (sen+niki)	Sanoq (son+a+q)
Shundan (shu+n+dan)	Meni (men+ni)	Ishlov (ishla+v)
Mavqeyi (mavqe+y+i)	Ko'ngli (ko'ngil-i)	Varag'i (varaq+i)
Obro'yim (obro'+y+im)	Shahrimiz (shahar+imiz)	O'quvchi (o'qi+vchi)
	Pasaymoq (past+ay)	Qishlog'ingiz (qishloq+ingiz)

Shu mashqni “Teskari usul” metodi orqali mustahkamlash ham mumkin. Ya'ni so'zlarni asos va qo'shimchaga ajratish orqali. Bu usul ham jadvalda aks etgan.

Faol qatnashgan guruham g'olib topilib, o`z quyoshlarini nurlatadilar.

Savol va topshiriqlar

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

1. Bo‘g‘in deb nimaga aytildi?
2. Bo‘g‘inlar soni nimaning soniga teng keladi?
3. Ochiq va yopiq bo‘g‘in deganda, qanday bo‘g‘inlarni tushunasiz?

V. Dars yakunlarini chiqarish



1. O‘quvchilarda paydo bo‘lgan savollarga javob beriladi;

2. Baholarni e’lon qilinadi.

3.O‘quvchilar aytib o‘tgan fikrlari to‘planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so‘nggi xulosasi chiqariladi



VI.Uyga vazifa.

Darslikdagi savollarga javob yozish va yodlash.

80-mashq. Uyga vazifa. ia, io, ai, oi, ea kabi yonma-yon keladigan unlilar ishtirok etgan 10 ta so‘z yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Internet saytlaridan foydalanimadi.
2. Mustaqil izlanuvchi tomonidan yoritildi.